

U. P. LAFASOV

TURKIY YOZUVLAR
TARIXI



01
A-25

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

U. P. LAFASOV

TURKIY YOZUVLAR TARIXI

Oliy ta‘lim muassasalarining bakalavr –
5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish
(sharq tillari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi uchun qo‘llanma



Toshkent – 2021

Mazkur o‘quv qo‘llanma Oliy ta‘lim muassasalarining bakalavr – 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (sharq tillari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallab yozilgan. O‘quv qo‘llanma “Ta‘lim to‘g‘risi”dagi Qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablaridan kelib chiqqanholda DTS, fan va o‘quv dasturlari asosida tayyorlandi.

O‘quv qo‘llanmada asosiy e‘tibor sharqshunos talabalarning asosiy sharq tilining yozuv tizimini mukammal o‘zlashtirishiga qaratilgan. O‘quv qo‘llanmani yaratishda dunyo xalqlari, turkiy xalqlar va o‘zbek xalqining ko‘p asrlik yozuv ilmiga tegishli nazariy qarashlari hamda yozuv sohasida erishgan yutuqlaridan foydalanildi. Shuningdek mualliflarning shaxsiy tajribalaridan kelib chiqqan holda asosiy sharq tilining yozuv tizimini o‘rgatishning yangi zamonaviy texnologiyalari yutuqlari hisobga olingan. O‘quv qo‘llanma talabaning asosiy sharq tilining yozuv tizimini yaxshi bilishlari, shu asnoda yozuv mezonlariga amal qilishlariga yordam beradi, deb o‘ylaymiz. O‘z navbatida asosiy sharq tilining yozuv tizimini to‘g‘ri o‘rganishda yo‘llanma beradi, deb umid qilamiz.

Mas‘ul muharrir: *Murodqosim Abdiyev*, filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: *Ixtiyor Umirov*, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Shirin Sodiqova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ўқув қўлланма Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2021 йил 18 августдаги 356-сонли буйруғига асосан нашрга тавсия этилган.

MUNDARIJA

Kirish.....	4
Yozuvning xususiyatlari va turlari	5
Piktografik va logografik yozuvlar	11
Sillabik va fonografik yozuvlar	16
Urxun va uyg'ur yozuvlari	28
Arab va usmonli yozuvi.....	35
Xat turlari va ularning qo'llanishi	46
Amaliy mashg'ulot. Urxun alifbosidagi harflar	51
Amaliy mashg'ulot. Urxun alifbosidagi so'zlar	65
Amaliy mashg'ulot. Mumtoz o'zbek alifbosidagi harflar.....	74
Amaliy mashg'ulot. Xattotlik namunalari.....	91
Рус тилидаги маърузалар.	
Особенности и виды письменности.....	100
Развитие пиктографического и логографического письма.....	104
Развитие силлабического и фонографического писем.....	106
Формирование орхонского и уйгурского писем	110
Своеобразные особенности арабского и османского письма..	113
Виды писем и их применение	117
Xulosalar	120
Adabiyotlar ro'yxati.....	121

KIRISH

Yozuv tizimi jamiyatning madaniy taraqqiyoti, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Asosiy sharq tilining yozuv tizimi tilshunoslikning amaliy sohasi sifatida qadimdan rivojlana boshlagan, buyuk allomalar juda qadimdan yozuv tizimi bilan shug'ullanib, unga oid masalalarni **xattotlik**, **kitobat** kabi nomlar bilan atab kelishgan. Asosiy sharq tilining yozuv tizimi harflardan ongli ravishda foydalangan holda to'g'ri va savodli yozish yo'llarini o'rgatadi.

Erkin fikrlaydigan, jamiyatning ziyoli qatlami bo'lgan mutaxassisni tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi vazifa sifatida e'tirof etilayotgan hozirgi kunda bu fan, xususan "**Asosiy sharq tilining yozuv tizimi**" kursining ahamiyati juda katta. Zero, ta'lim va tarbiya berishda asosiy vosita, ya'ni qurol yozuv sanaladi. Har bir mutaxassis aslida **chiroyli husnixat** egasi bo'lishi talab etiladi. "Asosiy sharq tilining yozuv tizimi" kursining maqsadi talabalarni avvalgi yozuv imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq foydalanish, savodxonlik, husnixat ko'nikma va malakalari bilan qurollantirishdan iborat.

Ushbu qo'llanmada yozuvning xususiyatlari va turlari, piktografik va logografik yozuvning taraqqiyoti, sillabik va fonografik yozuvning rivojlanishi, urxun va uyg'ur yozuvlarining shaklanishi, arab yozuvi va usmonli yozuvining qiyosiy izohlari kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek yozuvning tarixiy taraqqiyoti, yozuv madaniyati va unga qo'yiladigan talablar, yozuvning vazifasi, xattotlik, husnixat va boshqa masalalar haqida izohlar mavjud. Arab yozuidagi turli xat turlari va ular qo'llanadigan sohalar to'g'risida izohlar mavjud. Xattotlikning o'ziga xos sir-sinoatlariga tegishli qaydlar sharhlangan.

Amaliy mashg'ulotlar uchun harflarning turli ko'rinish va shakllari, asosiy so'z va so'zlarning yozilishiga tegishli qoidalar berilgan. Sharqdagi eng go'zal san'atlardan hisoblangan xattotlik san'atiga tegishli turli namunalari berilgan. Mazkur san'atning juda noyob va betakror namunalari ko'rgan kishiga zavq va shavq beradi. Ulardagi harflarning nafis jilosi inson qobiliyatining naqadar beqiyosligiga guvohlik beradi.

YOZUVNING XUSUSIYATI VA TURLARI

Reja:

1. Yozuvning taraqqiyoti va imkoniyati.
2. Yozuvning kamchiliklari.
3. Timsollashtirish buyum yozuvi.
4. Hozirgi yozuvning turlari.
5. Xulosa.

Tayanch soʻz va iboralar: yozuv, ijtimoiy talablar, madaniy yutuq, shartli sunʼiy aks, timsollashtirish buyumlar, rasml (piktografik) yozuv, soʻz (logografik) yozuvi, boʻgʻin (sillabik) yozuvi, harf-tovush (fonografik) yozuvi, finikiy alifbosi, oromiy alifbosi, soʻgʻd alifbosi, xorazm alifbosi, Oʻrxun-Enasoy alifbosi, uygʻur alifbosi, arab yozuvi.

Yozuv ijtimoiy talablar asosida jamiyatning oʻziga xos taraqqiyot davrida paydo boʻlgan va uning rivojlanishi bilan mukammal shaklga kirib borgan. Yozuv tildan keyin jamiyat tomonidan qoʻlga kiritilgan eng katta madaniy yutuqdir. Shandan boshlab yozuv tilning yozma shakli sifatida jamiyatga xizmat qilib kelmoqda. Yozuv ayrim hollarda tilning oʻrnini bosadi. Baʼzan tilda boʻlmagan imkoniyatlar yozuv orqali yuzaga chiqadi. M: yozuv vositasida kishilar oʻzidan keyingi avlodlar bilan aloqa bogʻlash imkoniyatiga ega.


Biroq yozuvning tilga nisbatan **kamchiliklari** ham bor. Birinchidan yozuv tilning toʻliq aksi emas, balki shartli sunʼiy aksi, chunki hech bir harf tovushni mukammal aks ettirib bera olmaydi. Ikkinchidan yozuv orqali ish koʻrilganda vaqtdan yutqaziladi. Uchinchidan yozuv maxsus vositalarsiz, yaʼni zaruriy ish qurollarisiz amalga oshmaydi. Toʻrtinchidan savodi yoʻq kishilar uchun, shuningdek tegishli sharoit boʻlmaganda (qorongʻuda) yozuv oʻz ahamiyatini yoʻqotadi.

Yozuvning hozirgi turlari yuzaga kelguncha insonlar timsollashtirish "**buyum xati**"dan foydalanishgan. Fikrimizga dalil sifatida tarix otasi **Gerodot** yozib qoldirgan matnni keltirmoqchimiz. **Gerodot**ning yozishicha, Tur avlodi boʻlgan munsak(skif)lar forslarga **qurbaqa, sichqon, qush** va **beshta yoy (kamon) oʻq**idan iborat "**buyum xati**" joʻnatganlar. Mazkur "**timsollashtirilgan maktub**" quyidagicha oʻqiladi: "**Agar sizlar(forslar) qush kabi osmonda ucha olmasangiz, qurbaqa kabi botqoqlikda sakrab yura olmasangiz, sichqon kabi yer**

ostiga yashirina olmasangiz, bizning o'qlarimiz zarbidan yo'q bo'lib ketasizlar”.

Quyida turlarga mansub yetti hindu qabilasining AQSH Prezidentiga yo'llagan piktografik xatini keltiramiz. Maktubda: Uchorol tumani hududiga joylashishni iltimos qilib yozishgan, hayvonlarning bosh va yuraklarini bog'lab turgan chiziqlar qabilalarning tafakkur hamda yagona tuyg'uni ifodalaydi.

Yetti hindu qabilasining piktografik xati



Narsalarning tushunchalarni timsollashtirishi ana shu davrlardan boshlangan. M: qadimda hindlar **oq rangni** “tinchlik va salomatlik”, **qora rang** (marjon) ni “dohiyning o'limi” sifatida timsollashtirishgan. Musulmonlarda **yashil rang** “hayot va yasharish”, **och ko'k rang**


“*motam*” timsoliga aylangan. Islom dinida, jumladan tasavvuf ta’limotida ruh va ranglar aloqadorligiga alohida e’tibor berilgan. Tasavvuf nazariyachilari talqinicha, **ruhning rangdan rangga ko’chishi** rivojlanishdan nishonadir. Bu holat oxir **tamkin (rangsizlik)** holatiga kirgan sufiy **talavvun (rang-baranglikdan)** qutulib, **Vahdat olamiga qo’shiladi**. Jumladan, **zangori rang** solikning *tavba qilib*, tariqatga qadam qo’yanida ko’rinadi. *Solikning Alloh yodi bilan yashashi sariq rangga to’g’ri keladi. Qizil rangda solikning ruhi vujudan ajrala boshlagani, ma’rifatga yaqinlashgani, ma’naviy mohiyatlar olamini anglagani ma’lum qilinadi. Oq rang bu – hirs qutqusidan xalos bo’lib, yurakning poklanishiga ishoradir. Haqiqatni anglash boshlanadi. Yashil rang valiylikdan nishonadir. Qora rang* Allohdan xalq sari qayta safarini bildirib, sirlar xazinasini egallashi va *hayratga g’arq bo’lishini* ifodalaydi¹. Demak, islom nazariyasida ranglarning ruhiyatga aloqadorligi e’tirof etiladi. Najmiddin Kubro (*Ahmad ibn Umar Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiy 1145-yilda Xivada tug’ilgan, 1221-yilda Ko’hna Urganchda halok bo’lgan*) yetti rangni yetti tushunchaga moslab tushuntirgan. Uningcha **oq rang** – islomni, **sariq rang** – iymonni, **zangori rang** – ehsonni, **yashil rang** – ishonchni, **ko’k rang** – to’la ishonchni, **qizil rang** – irfonni, **qora rang** – hayrat-hayajonni anglatadi². Mazkur xulosa ham ranglarning ruhiyatga daxldorligini tasdiqlaydi. O’zbeklardagi “**beqasam**”, “**atlas**” kabi milliy matolarda tasavvufiy ranglar mujassam va kishini hayratga soladigan mo’jizadir. Olimlarning taxminiga ko’ra, yozuvning paydo bo’lganiga taxminan to’rt-besh ming yillar bo’lgan. Hozir amalda bo’lgan yozuvlar to’rt turi bor:

1. **Piktografik yozuv** (“*piktus*” lotincha “*chizilgan*”) biror narsaning rasmini chizib **fikr (gap)** anglatish vositasi bo’lgan. Rasmlil (piktografik) yozuv dastlabki tajriba edi. M: *g’or va toshlardagi ilk rasmlar, yo’l harakati belgilari* kiradi.

¹ Najmiddin Komilov. Najmiddin Kubro. Toshkent. 21-bet.

² Najmiddin Komilov. Najmiddin Kubro. Toshkent. 22-bet.

G'or va qoya toshdagi rasmlar




























2. **Logografik** (“logos” grekcha – “so‘z”) yozuv biror o‘xshash belgi orqali **tushuncha** anglatish vositasidir. Yozuvning bu turini **ideografik** (“idea” grekcha – “tushuncha”) yozuv deb ham nomlashadi. Ideografik yozuv miloddan avvalgi 4000 yillikning oxiridan 2000 yilliklarning boshlarida shakllangan. M: *misr, xitoy, yapon ierogliflari*.

Xitoy ierogliflari
































3. **Sillabik yozuv** (“sillab” – “bo‘g‘in”) bo‘g‘inlarga asoslangan yozuv. Bo‘g‘in yozuvi miloddan avvalgi 2000-yilliklarning o‘rtalarida paydo bo‘lgan. M: *hindlarning divangari yozuvi, shumerlarning mix xati*. Shu yozuvning konsonant turiga so‘g‘d, uyg‘ur, arab yozuvlari ham kiradi.

Kipr bo‘g‘in yozuvi

 a	 e	 i	 o	 u
 pa	 pe	 pi	 po	 pu
 ta	 te	 ti	 to	 tu
 ka	 ke	 ki	 ko	 ku
 sa	 se	 si	 so	 su

4. **Fonografik yozuv** (grekcha “fone” – “tovush”) nutq tovushlarini harflar bilan ifodalash vositasidir. M: *giksos, finikiy, oromiy, xorazm, Urxun-Enasoy, lotin, kirill alifbolari*.

Urxun alifbosi

 a	 e	 i	 u	 ü	 y ₁	 y ₂	 b ₁	 b ₂	 ç ₁
 ç ₂	 d ₁	 d ₂	 g ₁	 g ₂	 t ₁	 t ₂	 m	 n ₁	 n ₂
 q	 j	 nč	 nd	 p	 k ₁	 ky	 ku	 k ₂	 kü
 r ₁	 r ₂	 s ₁	 s ₂	 š ₁	 š ₂	 t ₁	 t ₂	 z	 ld

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, dunyo yozuvning to'rtta turi bor. Hozir ana shu yozuv turlarining barchasi amalda qo'llanmoqda. Piktografik yozuvning faol ishlatilayotgan turi yo'l harakati belgilari, turli tamga hamda belgilardir. Logografik yozuvning ko'p qo'llanayotgan turi xitoy ierogliflari hisoblanadi. Sillabik yozuvning doimiy amalda bo'lgan turi hind alifbosi sanaladi. Fonografik yozuvning hozirgi zamonda eng ko'p ishlatilayotgan turi lotin va kirill alifbolaridir.

Nazorat savollari

1. Yozuvning paydo bo'lishi va ahamiyati nimalardan iborat?
2. Yozuvning tilga nisbatan qanday kamchiliklari bor?
3. Timsollashtirish "buyum xati" nima va qanday vazifa bajargan?
4. Tushunchalarni timsollashtirish va uning ranglarga ko'chishi?
5. Hozir amalda bo'lgan yozuvlarning turlari qaysilar?
6. Piktografik yozuvning faol ishlatilayotgan turi?
7. Logografik yozuvning ko'p qo'llanayotgan turi?
8. Sillabik yozuvning ko'p qo'llanayotgan turi?
9. Fonografik yozuvning eng ko'p ishlatilayotgan turi?

Topshiriq: Har bir talaba rasmlarni chizadi, ieroglifik belgilar va harflarga namuna yozadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Истрин В.А. Развитие письма. – Москва. Издательство "Академии наук". 1961. – 395 страница.
2. Mehmet Emiñoğlu. Usmamli esikalarini okumaya giriş. İlaveli 2. Baskı. –Ankara. 1992. – 366 bet.
3. Эргаш Умаров. Урхун ёзуви. – Т.: "Fan va ta'lim poligraf" nashriyoti. 2013, – 42 bet.
4. Эргаш Умаров. Новые данные об орхонских надписях. – Ташкент. Издательство "Фан". 2006. – 32 страница.
5. Раҳим Жуманиёз. Ҳарфлар тилга кирганда. – Т.: "Ўқитувчи" нашриёти. 1995. – 143 бет.
6. Масъудали Ҳакимжон. Хатти муъаллимий. – Т.: "Меҳнат" нашриёти. 1991. – 64 бет.
7. Раҳимбой Жуманиёзов. Эски ўзбек ёзуви. Т., "Ўқитувчи" нашриёти. 1989. – 189 бет.

PIKTOGRAFIK VA LOGOGRAFIK YOZUVLAR

Reja:

1. Yozuvning xususiyatlari.
2. Piktografik yozuvdagi o'ziga xosliklar.
3. Ideografik yoki logografik yozuv yuzaga kelishi.
4. Logografik yozuvdagi o'zgacha jihatar.
5. Xulosa.

Tayanch so'z va iboralar: yozuvning xususiyati, yordamchi muomala vositasi, signal (ishora) tizimi, nutqqa nisbatan keng vazifa, chizma belgilar, ilk yozuv turi, amerikklik hindular, rasm gap(fikr), piktografik belgilar, yo'l harakati belgilari, peshlavhalar, logografik yozuv, logogramma (ideogramma), **tasviriy** logogramma, **ko'rsatuvchi** logogramma.

Yozuv insoniyat tomonidan tildan keyin qo'lga kiritilgan madaniy yutuqlardan biridir. Yozuvning **birinchi muhim xususiyati** nutqni ifodalashda yordamchi muomala vositasi ekanligidir. Insonning asab tizimini o'rgangan olim I.P.Pavlov tilni ikkinchi ishora(signal) tizimi, yozuvni esa uchinchi ishora(signal) tizimi ekanligini ta'kidlagan. Bu holat "tushuncha – yozuv belgilari" qoidasini yuzaga keltiradi. Yozuvning **ikkinchi muhim xususiyati** u nutqqa nisbatan ham favqulodda keng vazifani bajaradi. Yozuv birinchi navbatda nutqni uzoq masofaga o'ziga biriktirilgan vaqtda yetkazib beradi. Yozuvning **uchinchi muhim xususiyati** ko'rish mumkin bo'lgan chizma belgilardan iboratligidir.

Piktografik yozuv tarixdagi ilk yozuv turi hisoblanadi. U bevosita nutq bilan aloqadordir. Hozir bu yozuv turi *asli osiyolik turlar* (hozirgi **amerikklik hindular**) da saqlangan. Piktogramma bu sodda yoki murakkab shakl sifatida **rasm-gap**, ya'ni **fikr** ifodalaydi. Piktografik yozuvning birinchi vazifasi narsa almashishni yengillashtirgan. Piktografik xatlarda yirik ov va urush voqealari o'z aksini topgan. Hozir turlarda saqlangan ko'pgina belgilar ham piktografik yozuvga aloqador hisoblanadi. Masalan:

- 1) urug' va qabilalarga tegishli belgi va totemlar;
- 2) hukmdorlarning tamg'a va tangalari;
- 3) qabila, urug' va tabaqalarni farqlovchi tamg'alar;
- 4) ustalarning o'zi yasagan idish va narsalariga bosgan tamg'alari;

5) turli baxtsizlik, balo-qazolardan asraydi deb hisoblangan narsalar (tumor, xoch);

6) turli holatlarga ishora qiluvchi belgilar.

Shimoliy Amerikada yashaydigan turlar, ya'ni amerikalik **hindular**da tushunchalarni timsollashtirish hozir ham mavjud. Buni quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin:

Tur (hindu)larda tushunchalarning timsollari



Ushbu rasmda 1) **hayot** (ertakdagi shoxli ilon); 2) **o'lim** (odam yoki hayvon boshi pastga qarab turadi); 3) **baxt**, muvaffaqiyat (toshbaqa); 4) **abjirlik** (qo'llari qanotli odam); 5) **urush** (yoy bilan o'q); 6) **tinchlik** (yelpig'ich); 7) **tinchlikka erishmoq** (inson tinchlik mushtigini chekmoqda); 8) **do'stlik** (qo'llarning tutashuvi); 9) **sevgi**

(yuraklarning bog'lanishi); 10) **diqqat, eshitish** (qo'loqqa to'lqinlarning urilishi); 11) **falokat** (ikki ilon birlashishi); 12) **himoyada turish** (harakatdagi it); 13) **ibodat** (qo'lni tik ko'targan holda Yaratganga iltijo). Hozirgi paytdagi piktografik yozuv namunalariga **yo'l harakati belgilari**, mahsulotlardagi turli belgilar, do'kon va ustaxonalarning tepasidagi peshlavhalar bunga misol bo'la oladi.

Yo'l harakati belgilari



Logografik yoki ideografik yozuv insoniyatning ikkinchi ijod namunasi hisoblanadi. Bunga *misr, tur, shumer, xitoy, krit, may, atstek qadimgi yozuvlari, raqamlar va turli fanlardagi shartli belgilar* misol bo'ladi. Logografik yozuv hech qachon bir joyga va bir xalqqa tegishli holda taraqqiy etmagan. Keyinchalik o'zaro aloqalar bois bir-birini to'ldirgan. Ko'pchilik olimlar shumer yozuvini barchasidan qadimgiroq deb hisoblashadi. Chunki shumer yozuvidagi

logogrammalar *misr, xitoy (in), krit (krit-min)* ideogrammalarga mos keladi.

Xitoy ierogliflari



Logogramma(ideogramma) bu – soʻz, yaʼni **tushuncha** ifodalaydi. Logogramma ikki asosga binoan shakllanadi. Birinchi **logogramma** (*xitoy ideografik ierogliflari*) bevosita soʻzning maʼnosiga aloqador hisoblanadi. Uning bir necha **sinonimlari** mavjud boʻladi. Ikkinchi **logogramma** (*xitoy fonetik ierogliflari*) bevosita soʻzning talaffuz tomoniga tegishli boʻladi. Uning bir necha **omonimlarga** mavjud boʻladi. Yana **geterogramma** (*psevdoideogramma*) lar boshqa xalqning yozuvini, yaʼni yozma adabiy tilini qabul qilish natijasida yuzaga kelgan. M.: “*odam*” ieroglifni xitoylar “**jen**”, yaponlar esa “**xito**” deb oʻqishadi. Xitoy yozuvining shakllanishi In sulolasi davrida boshlangan boʻlsa ham Chjou, Sin va Xan sulolalari davrida rivojlanirildi. Xitoy ierogliflarining turlari quyidagicha izohlanadi: 1) **tasviriy** (*logogrammada nimadir tasvirlanadi*); 2) **koʻrsatuvchi** (*logogramma*

nimaningdir timsoli bo'ladi); 3) **shakliy o'zgarishli** (boshlang'ich shakli o'zgarishga uchragan bo'ladi); 4) **o'zlashtirma** (omonimlik xususiyatiga ega); 5) **qo'shma** (bir necha ieroglifdan iborat bo'ladi); 6) **tarkibli** (fonetik va ideografik logogrammalardan tuziladi).

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, **piktografik**(rasm-gap) yozuvi turlar tomonida ijod qilingan. Hozir hindularda saqlangan bolib, piktogrammalarning juda ko'plarini butun jahon ahli amalda ishlatmoqda. **Ideografik yoki logografik yozuv** barcha xalqlarning ijod mahsuli bo'lib, hozir xitoy va yapon xalqlarida keng qo'llanmoqda.

Nazorat savollari

1. Yozuv va uning xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Piktografik yozuv to'g'risida ma'lumot bering?
3. Turlardagi qaysi belgilar piktografik yozuvga aloqador hisoblanadi?
4. Amerikalik turlar, ya'ni hindulardagi timsollar haqida nimalarni bilasiz?
5. Ideografik yoki logografik yozuvga izoh bering?
6. Logogrammaning turlarini sharhlang?
7. Xitoy ierogliflarining turlarini izohlang?

Topshiriq: Har bir talaba timsol va harflarga namuna yozadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Истрин В.А. Развитие письма. – Москва. Издательство “Академии наук”. 1961. – 395 страница.
2. Mehmet Eminoglu. Usmamli esikalarini okumaya giriş. İlaveli 2. Baskı. –Ankara. 1992. – 366 bet.
3. Эргаш Умаров. Урхун ёзуви. – Т.: “Fan va ta'lim poligraf” nashriyoti. 2013, – 42 bet.
4. Эргаш Умаров. Новые данные об орхонских надписях. – Ташкент. Издательство “Фан”. 2006. – 32 страница.
5. Раҳим Жуманиёз. Ҳарфлар тилга кирганда. – Т.: “Ўқитувчи” нашриёти. 1995. – 143 бет.
6. Масъудали Ҳакимжон. Хатти муъаллимий. – Т.: “Меҳнат” нашриёти. 1991. – 64 бет.
7. Раҳимбой Жуманиёзов. Эски ўзбек ёзуви. Т., “Ўқитувчи” нашриёти. 1989. – 189 бет.

SILLABIK VA FONOGRAFIK YOZUVLAR

Reja:










































1. Sillabik yozuvning ijod qilinishi.
2. Sillabik yozuvning shakllanishiga ko'ra uch tiplari.
3. Sillabik yozuvning bo'g'inlarni ifodalashiga ko'ra turlari.
4. Fonografik yozuvning yuzaga kelishi.
4. Giksoslar haqida ma'lumot.
5. Geksos alifbosining yuzaga kelishi.
6. Finikiy alifbosi haqida.
7. Oromiy alifbosi to'g'risida.
8. Sug'd alifbosining yuzaga kelishi.
9. Turkiy alifboning shakllanishi.
9. Uyg'ur alifboning yuzaga kelishi.
10. Xorazm alifboning shakllanishi.
11. Urxun alifboning yuzaga kelishi.
12. Xulosa.

Tayanch so'z va iboralar: Sillabik yozuv, taraqqiyot bosqichlari, sillabema, mixxati, devanagari, efiopiya, ossur-bobil, elam, urartu, maya, kun-mun (koreys), fors-axmoniy, kxaroshta, krit-miken, kibr va kana (yapon) yozuvlari, fonografik yozuv, giksoslar, geksos, finikiy, oromiy, sugd, uygur, xorazm, urxun alifbolari.

Sillabik (yunoncha "syllable" – "bo'g'in") yozuv insoniyatning yozuv sohasidagi uchinchi ijod namunasi hisoblanadi. Sillabik yozuvni miloddan avvalgi 3-2-asrlardagi ilk bosqichida **shumerlar** qo'llagan. **Mesopotamiya** (Ikki daryo Dajla va Furot daryolari oralig'i)da bir qancha mixxat yozuvlari, krit va g'arbiy som yozuvlari paydo bo'lgan.

Sillabik (bo'g'in) yozuvning keyingi taraqqiyot bosqichi miloddan avvalgi 1-asr va milodiy 1-asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda *Efiopiya, Hindiston va Janubiy Sharqiy Osiyoda* bo'g'in yozuvlari yuzaga kelgan. Sillabik yozuvning eng oxirgi bosqichida *yapon va koreys* yozuvlari shakllangan. Sillabik yozuvdagi belgilar "**sillabema**" deb ataladi.

Krit alifbosi

1		10		19		28		37	
2		11		20		29		38	
3		12		21		30		39	
4		13		22		31		40	
5		14		23		32		41	
6		15		24		33		42	
7		16		25		34		43	
8		17		26		35		44	
9		18		27		36		45	

Sillabik (bo'g'in) yozuvlarga *mixxati*, *devanagari*, *efiopiya*, *ossur-bobil*, *elam*, *urartu*, *maya*, *kun-mun (koreys)*, *fors-axmoniy*,

kxaroshta, krit-miken, kibr va kana (yapon) yozuvlarini kiritish mumkin.

Efiopiya alifbosi	Arman alifbosi
ሀ ለ ሐ መ ግ	Ա Բ Գ Դ Ե Զ Է
ረ ሰ ቀ በ ተ	Ը Թ Ժ Ի Լ Խ Ծ
ገ ነ አ ከ ወ	Կ Ը Թ Ժ Ի Լ Խ Ծ
ዐ Ի Բ Գ Դ	Ն Շ Ո Զ Պ Զ Ռ
ጠ ጸ ጸ ፀ ፈ	Ս Վ Տ Ր Յ Ի Փ
Ծ	Բ Օ Ֆ

Sillabik (*bo'g'in*) yozuvi *shakllanishiga ko'ra* uch tipga ajratib izohlangan:

Birinchi tip eng qadimiy asosiy bo'g'in yozuv tizimi bo'lib, logogrammalarning ichki tabiiy o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan. Bu tipga: *oldosiyo, krit, mayya, kibr va biblosskoe* sillabik yozuvlari mansubdir.

Ikkinchi tip bo'g'in yozuvi keyinroq eramizdan oldingi oxirgi yuz yillik va eramizning birinchi yuz yilligida shakllangan bo'lib, konsonant-tovush yozuvidagi unlilar tizimiga asoslangan. Bular: *efiopiya, hind, braxma, kxaroshti* sillabik yozuvlari.

Hind alifbosi

अ	आ	इ	ई	उ	ऊ
a	ā	i	ī	u	ū
ए	ऐ	ऋ	ॠ	ऌ	ॡ
e	ē	ai	o	ō	au
क	ख	च	छ	ट	ण
ka	na	ca	ña	ta	na
त	थ	प	म	य	र
ta	na	pa	ma	ya	ra
ल	व	श	ह	र	ण
la	va	za	la	ra	na
ज	स	ष	ह	क्ष	स्री
ja	sa	sa	ha	kša	sri

Oraliq tip sifatida *fors-axmoniy bo'g'in yozuvi* bobil logografik yozuvi va oromiy tovush yozuvi asosida yuzaga kelgan.

Uchinchi tip sillabik yozuvlari eramizning birinchi va ikkinchi ming yilligida logografik yozuvni to'ldirish natijasida yuzaga kelgan.


Bunga yaponlarning *kana* yozuvi va koreyslarning *kunmun* yozuvi misol bo'la oladi.

Kana alifbosi					
A	あ A	い И	う У	え Э	お O
KA	か KA	き KI	く KY	け KЭ	こ KO
SA	さ SA	し SI	す SU	せ SЭ	そ SO
TA	た TA	ち CHI	つ CY	て TЭ	と TO
NA	な NA	に NI	ぬ NY	ね NЭ	の NO
XA	は XA	ひ HI	ふ FU	へ XЭ	ほ XO
MA	ま MA	み MI	む MU	め MЭ	も MO
YA	や YA		ゆ YU		よ YU
PA	ら PA	り PI	る PY	れ PЭ	ろ PO
BA	わ BA				を O
N			ん N		

Sillabik (*bo'g'in*) yozuvi *bo'g'inlarni ifodalashiga ko'ra* ham uchta katta turga ajratiladi. **Birinchi turga** tizim asosiga ko'ra farqlanuvchi asosiy **Oldosiy** klinopislari, jumladan *ossur-bobil*,























elam, urartu, maya, kun-mun (koreys) sillabik yozulari kiradi. **Ikkinchi turga** chiziqlariga ko'ra farqlanuvchi *krit-miken, kibr, efiofiya, kana (yapon)* bo'g'in yozuvlari kiradi. Ikkinchi turga aloqador, lekin o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turuvchi *fors-axmoniy* bo'g'in yozuvi **oraliq tur** hisoblanadi. **Uchinchi turga** turli ko'rinishlarga ega bo'lgan *kxaroshta, devanagari, braxma* kabi *hind bo'g'in yozuvlari* kiradi. *Sillabik (bo'g'in) yozuv yozuvining* ayrim logografik yozuv negizda yuzaga kelgan ko'rinishlarini *Oldoosiyodagi elamlar, Suriyadagi xettilar (Xettilar davlati), Kavkazdagi (Urartu davlati)* dagi xalqlar qo'llashgan.

Fonografik (yunoncha "phone" – "tovush") **yozuvi** insoniyatning yozuv sohasidagi to'rtinchi ijod namunasi hisoblanadi. Tilning fonetik tuzilishini, tovush tarkibini aniqroq, to'liqroq aks ettiruvchi yozuv turidir. Dastlabki fonografik yozuvlar (*giksos, finikiy, oromiy*) konsonant, ya'ni undoshlar tizimiga asoslangan edi. Giksos, finikiy va oromiy alifbolarida 22 ta undosh tovushni ifodalovchi harflar bo'lgan. O'ta osiyolik turlardan bo'lgan **giksoslar** jasur harbiylar bo'lib, aylana qalqon va o'q-yoy ishlatishgan. Giksoslar Misrni to'liq bosib olishgan.



Turonning markazi, ya'ni Ikkidaryo (O'kuz va Inju O'kuz) o'ralig'ida da yashagan **o'kuzbeklar** ham aylana qalqon va o'q-

yoydan foydalanishgan. Giksoslarning suv idishlari va buyumlaridagi turli naqshlar o'kuzbeklarniki bilan bir xildir. Aylana shakldagi tamg'a okuzbeklarning asosiy ramzlaridan biri bo'lgan. Bu asoslardan hundan xulosaga kelish mumkinki, ular o'kuzbeklar bilan yaqin qandosh xalq bo'lgan. Giksoslar³ Misr ieroglafllari asosida Yer yuzidagi ilk fonografik yozuvni ijod qilishgan. Dastlabki fonografik yozuv *giksoslar alifbosi* undoshlar tizimiga asoslangan bo'lib, unda 22 ta undosh harf mavjud edi.























Giksos alifbosi					
	*aleph	[ʾ]		lamedh	[l]
	beth	[b]		mem	[m]
	gimmel	[g]		nun	[n]
	daieith	[d]		samekh	[s]
	he	[h]		*ayin	[ʔ]
	waw	[w]		pe	[p]
	zayin	[z]		tsade	[ʃ]
	heth	[h]		qoph	[q]
	teth	[t]		reš	[r]
	yodh	[y]		šin	[ʃ]
	kaph	[k]		taw	[t]

Giksos alifbosini finikiylar o'z tillariga moslashtirib qabul qilishgan. *Finikiy alifbosi* miloddan avvalgi 2-ming yillik o'rtalarida

³ Aslida ular turlar qavmidan hisoblangan geksaklardir.

Finikiyada paydo bo'lgan va milodiy IV asrgacha qo'llangan. Ushbu alifboni finikiyaliklar, karfagenliklar va qadimgi yahudiylar amalda ishlatishgan. Finikiy alifbosi konsonant bo'g'in yozuvidan kelib chiqqan konsonant harf-tovush yozuvi hisoblanadi. Unda grafemalar soni 22 ta bo'lib undosh tovushlarni ifodalagan. Unlilar belgilar orqali ifodalangan. Bu alifboning asosiy kamchiligi ham shu hisoblanadi. Shu asosga tayanib aytish mumkinki, finikiy alifbosi mukammal fonografik yozuv emas. Mukammal fonogragik yozuvni turkiy xalqlar ijod qilishgan.

Finikiy alifbosi

	'aleph	[ʾ]		lamedh	[l]
	beth	[b]		mem	[m]
	gimmel	[g]		nun	[n]
	daleth	[d]		samekh	[s]
	he	[h]		'ayin	[ʾ]
	waw	[w]		pe	[p]
	zayin	[z]		tsade	[s]
	heth	[h]		qoph	[q]
	teth	[t]		reš	[r]
	yodh	[y]		šin	[š]
	kaph	[k]		taw	[t]

Arablarning ko'chmanchi som qabilalariga mansub oromiylar miloddan avvalgi 1000 yillik boshida finikiy yozuvini o'z tillariga

moslashtiradilar, keyinroq ayrim o'zgartirishlar kiritganlar. **Oromiy alifbosi** 22 undoshni ifodalovchi harfdan iboratdir. Bu yozuvda so'zlar *bir tik chiziq* va *nuqta* bilan ajratilgan. Miloddan avvalgi VIII asrda oromiy tili va yozuvi xalqaro til va yozuvga aylangan, shunda O'rta Osiyoga ham yoyilgan.

Oromiy alifbosi							
h	z	w	h	d	g	b	
'	s	n	m	l	k	y	t
	t	s	r	q	s	p	

Oromiy yozuvidan hozirgi eramizning boshlarida **sug'd** (munsak) yozuvi shakllanib I-IX asrlarda qo'llangan. Samarqand yaqinidagi Taliborzu tepaligidan, Tojikistondagi Mug' qal'asidan topilgan shoh Divashti(ch) arxivi qoldiqlari mavjud. Hujjatlar charm, qog'oz va taxtachalarga turkiy tilda yozilgan. Bu yozuv o'ngdan chapga, ba'zan tik (vertikal) yo'nalishda yozilgan. Sug'dlar alifbosida 23 ta harf bo'lgan. O'ngdan chapga, ayrim hollarda yuqoridan pastga qarab yozilgan. Mazkur munsak alifbo asosida turkiy alifbo shakllangan, keyin Abu Rayhon Beruniy 32 harfli alifboga aylantirgan.

Eramizning VI asrida sug'd yozuvi asosida va suryoniy yozuvi ta'sirida **uyg'ur** alifbosi shakllandi. Bu alifboda 19 ta harf va 3 ta belgi bo'lgan. O'ngdan chapga qarab yozilgan. Arab yozuvi bilan bir qatorda XV asrgacha qo'llangan. Sariq uyg'urlar XIX asrgacha

mazkur alifbodan foydalanishgan. 720-yilda O'rta Osiyoga arab yozuvi kirib keldi. XV asrdan ajdodlarimiz turkiy nasta'liq yozuvidan foydala boshlaganlar.

Uyg'ur alifbosi

Initial	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀
Medial	◀		◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀
Final	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀
Latin	e	a/e	w/v	y	o/u	o/ü	z	ž	x	q	y/i
Initial	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀
Medial	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀
Final	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀	◀
Latin	k/g	d	m	n	b/p	č	r	s	š	l	l

Hozirgi eramizning II asri oxirlari III oromiy yozuvidan **xorazm** yozuvi ajralib chiqqan. Xorazm yozuvidan eramizning V asrida **Urxun** alifbosi shakllangan. Ushbu alifboda 35 tadan 41 tagacha harf bo'lgan. Harflar o'ngdan chapga va yuqoridan pastga qarab yozilgan. To'qqizta unli tovushni ifodalash uchun 4-5 ta harfdan foydalanishgan. Mazkur alifbo turkiy tillarning singormanizm qonuniyatlariga to'la mos keladi.

Urxun alifbosi

𐤀 𐤁 𐤂 𐤃	a, ā	a, ā	𐤄	ā	ā
𐤄	b ¹	b ¹	𐤅 𐤆 𐤇 𐤈 𐤉	nt	nt
𐤊 𐤋 𐤌	b ² , ā	b ² , ā	𐤍	nt	nt
𐤎 𐤏 𐤐 𐤑	g	g	>>	o, y	o, u
𐤒	r	g	𐤓 𐤔 𐤕	ō, ū	ō, ū
𐤖 𐤗 𐤘	d ¹	d ¹	𐤙	u	p
x	d ²	d ²	𐤚 𐤛	p ¹	r ¹
𐤜 𐤝 𐤞 𐤟	a	z	𐤠	p ²	r ²
𐤡 𐤢 𐤣 𐤤	bi, i	y, i	𐤥	c ¹	s ¹
D	j ¹	j ¹ , i	I	c ²	s ²
𐤧	j ²	j ² , i	𐤨 𐤩	t ¹	t ¹
𐤫 𐤬 𐤭 𐤮 𐤯 𐤰	k	q	𐤱	t ²	t ²
𐤲 𐤳 𐤴 𐤵 𐤶 𐤷	k	k	𐤸 𐤹	ç	ç
J	l ¹	l ¹	𐤺 𐤻 𐤼 𐤽 𐤾	sh	š
Y	l ²	l ²	𐤿		
M	lt	lt			
𐤿	m	m			
)	n ¹	n ¹			
𐤽 𐤾 𐤿	n ²	n ²			
𐥀	n	n			

АН УЭСС
 ВЪДННОСТЕ
 АННОСТЕ
 АННОСТЕ

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, shumerlar sillabik (bo'g'in) yozuviga tamal toshi qo'yib beganlar. Yer sharida qo'llanayotgan barcha fonografik yozuvlar giksoslar ijod qilgan alifbodan tarqalgan. Keyinchalik **geksos-finikiy-oromiy** yozuvidan yahudiy, nabotiy, arab, gruzin, arman, sug'd, xorazm, uyg'ur, urxun va mo'g'ul alifbolari shakllangan. Shu alifbolar zamirida miloddan avvalgi XI-VIII asrlarga kelib lotin, keyin kirill alifbosi shakllangan. Keyin esa brahma va tibet yozuvlari yuzaga kelgan.

Nazorat savollari

1. Sillabik yozuv to'g'risida ma'lumot bering?
2. Sillabik yozuvning taraqqiyot bosqichlarini izohlang?
3. Sillabik yozuvining shakllanishiga ko'ra tiplarini sharhlang?
4. Sillabik yozuvning bo'g'inlarni ifodalashiga ko'ra turlariga izoh bering?
5. Fonografik haqida ma'lumot bering?
6. Giksoslar to'g'risida ma'lumot bering?
7. Giksos, finikiy va oromiy alifbolarini sharhlang?
8. Xorazm, Urxun alifbolarni izohlang?
9. Sug'd, turkiy, uyg'ur alifbolarni sharhlang?

Topshiriq: Har bir talaba sillabema va harflarga namuna yozadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Истрин В.А. Развитие письма. – Москва. Издательство “Академии наук”. 1961. – 395 страница.
2. Mehmet Emınođlu. Usmamli esikalarini okumaya giriş. İlaveli 2. Baskı. –Ankara. 1992. – 366 bet.
3. Эргаш Умаров. Урхун ёзуви. – Т.: “Fan va ta'lim poligraf” nashriyoti. 2013, – 42 bet.
4. Эргаш Умаров. Новые данные об орхонских надписях. – Ташкент. Издательство “Фан”. 2006. – 32 страница.
5. Раҳим Жуманиёз. Ҳарфлар тилга кирганда. – Т.: “Ўқитувчи” нашриёти. 1995. – 143 бет.
6. Масъудали Ҳакимжон. Хатти муъаллимий. – Т.: “Меҳнат” нашриёти. 1991. – 64 бет.
7. Раҳимбой Жуманиёзов. Эски ўзбек ёзуви. Т., “Ўқитувчи” нашриёти. 1989. – 189 бет.

URXUN VA UYG'UR YOZUVLARI

Reja:

1. *Buyuk Turon haqida ma'lumot.*
2. *Urxun yozuvidagi bitiklar.*
3. *Urxun yozuvidagi bitiklarning topilishi.*
4. *Turkiy uyg'ur yozuvi.*
5. *Turkiy uyg'ur yozuvida bitilgan yodoriqlar.*
6. *Xulosa.*

Tayanch iboralar: *Buyuk Turon, turlar, Buyuk Turonning chegaralari, Yofas yalavajning o'g'illari, urxun (dulbarjin) yozuvi, toshbitiklar, bitiktoshlarning topilishi, bitigtoshlarning o'qilishi, urxun yozuvi bor ashyolar, turkiy-uyg'ur yozuvi, uyg'ur yozuvidagi manbalar, , uyg'ur yozuvidagi yodoriqlar, , uyg'ur yozuvidagi kitoblar.*

Nuh payg'ambarning o'g'li Yofas(Tur)ning avlodlari mazkur hududda istiqomat qilishgan. Nuh o'g'li Yofasga Turon hamda Turkistonni bergan. Mirzo Ulugbek bu haqda shunday yozgan: "*Turon va Turkistonni Yofas alayhissalom uchun asrab qo'ygan edi. Shu sababli uni Abut-turk deyishgan*"⁴. Demak, turlar tarqalgan hudud Buyuk Turon deb atalgan. Buyuk Turonning markazi esa Turkiston, poytaxti esa Semizkent (Samarqand) bo'lgan. Buyuk hukmdor Amir Temurning farmonlari quyidagi izoh bilan boshlangan: "*Bizkim – mulki Turon, amiri Turkistonmiz, bizkim – millatlarning eng ulug'i Turkning bosh bo'g'inimiz!*" Buyuk Turonning g'arbiy chegarasi Rum (Italiya), sharqiy chegarasi Jabarqa (Yaponiya), shimoliy chegarasi Muzli okean va Alyaska, janubiy chegarasi esa Pekindir. Yofas yalavajning to'qqiz o'g'li bo'lgan. Bu haqda Mirzo Ulug'bek quyidagi asosni keltiradi: "*Yofas alayhissalomga to'qqiz o'g'il ato qilgan: Birinchisi Turk, ikkinchisi Hibroz, uchinchisi Saqlob, to'rtinchisi Yobon, beshinchisi Munsak, oltinchisi Chin, yettinchisi Gumori, sakkizinchisi Kimol, to'qqizinchisi Mozux*"⁵. Yofasning Turk ismli o'g'lidan turkiy xalqlar, Munsak ismli o'g'lidan sak, massaket, xorazm xalqlari, Saqlob ismli o'g'lidan fin-ugor xalqlari, Yobon ismli o'g'lidan yunonlar va rus xalqining ota urug'i (ular keyinchalik ona tomondan slavyanlarga tutashgan), Chin ismli o'g'lidan esa tungus-

⁴ Mirzo Ulug'bek. Turt ulus tarixi. T., "Chulpon" nashriyati, 1994, 34-bet.

⁵ Mirzo Ulug'bek. Turt ulus tarixi. Toshkent. "Chulpon" nashriyati, 1994, 33-bet.

manjur xalqlari tarqalgan. Yofasning *Hibroz*, *Gumori*, *Kimol* va *Mozux* ismli o'g'illarining avlodlari esa ma'lum emas.

Urxun, ya'ni *dulbarjin* yozuvi birinchi yo'nalish bo'yicha **oromiy** alifbosi zaminida **xorazm** yozuvi asosida shakllangan. **Urxun** alifbosida 35 tadan 41 tagacha harf mavjud bo'lgan. Harflari *o'ngdan chapga* va *yuqoridan pastga* qarab yozilgan. Urxun (dilbarjin) yozuvi yozma yodgorliklar turkiy xalqlarning eng noyob va daxlsiz yozma merosi hisoblanadi. Urxun yozuvda yozilgan **700** ga yaqin toshbitiklar mavjud. Ularning eng kattasi **to'rtta** ("*Tunyuyuq*", "*Bilga xoqon*", "*Kultegin*", "*Ungun*" (*Onzun*) dir. Enasoy daryosi bo'yidan **250** ka yaqin bitiktoshlar topilgan. **Juvayniy 1260-yilda** o'zining "*Tarixi jahonkushoyi*" asarida urxun yodgorliklari haqida ma'lumot bergan. **Ibn Arabshoh** "*Ajoyibu-l-maqdur fi navoyibi Taymur*" (*Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari*) asarida xabar bergan. Ibn Arabshoh (*Ibn Arabshoh Shihobuddin Ahmad Ibn Muhammad Ibn Abdulloh ibn Ibrohim* 1388-yida Damashqda tug'ilgan. Amir Temur 1401-yilda Shom (Suriya) ni egallab, Ibn Arabshohni qarindosh-urug'lari bilan Samarqandga olib kelgan. Olim Samarqandda ta'lim olgan, turkiy, forsiy tillarini va mo'g'ul lahjasini o'rgangan) shunday yozilgan: "*Xitoyda turkiylarning "dulbarchin" deb ataladigan yozuvi bor. O'zim ko'rdim, qirq bitta harfi mavjud. Ko'pligining sababi shundaki, turkiylar tovushlarning qalin va ingichkalarini, shuningdek ayirgich talaffuzlilarni alohida harf bilan yozadilar, natijada qo'shimcha belgilar va harflarga ehtiyoj paydo bo'lgan*". Rumin sayyohi **Nikolas Melek** 1575-yilda Urxun daryosi bo'yiga sayohat qilgan va urxun yozuvlarini o'z ko'zi bilan ko'rib, bitiklar haqida fikrlarini bayon qilgan. Olmon olimi **Messershimdt** 1721-yilda Enasoy daryosi bo'yida qilgan sayohatida urxun (dilbarjin) yozuvidagi bitiktoshlarni ko'rib, ular haqidagi mulohazalarini qog'ozga tushirgan. Urxun bitiktoshlarining mavjudligi haqida dastlab rus harbiy xizmatchisi **Remezov** ma'lumot bergan. Keyinchalik shved zobiti **Iogann Strallenbur**, olim **Messershimdt** toshbitiklarni jahon ilm ahliga ma'lum qilganlar. Bitiktoshlar dastlab *Urxun*, *Selenga*, *To'li* daryolari atrofidan, so'ngra *Enasoy daryosi* qirg'oqlaridan, Shimoliy Mongoliya hududidan topilgan. Buyuk Turk xoqonligi mazkur hududda hukm surgan ulkan davlat bo'lgan.

Urxun alifbosidagi harflar

ᠰᠯᠬ᠎ᠠ	a, ä	a, ä	ᠰ	ᠠ	ä
ᠰ	b ¹	b ¹	ᠰᠣᠰᠣᠰᠣᠰᠣᠰ	ᠪᠠ	ᠪᠠ
ᠰᠤᠰᠤ	b ² , ü	b ² , ü	ᠰ	ᠪᠡ	ᠪᠡ
ᠰᠤᠰᠤᠰᠤ	v	v	ᠰᠤᠰ	ᠪᠣ, y	ᠪᠣ, u
ᠰᠤᠰ	r	g	ᠰᠤᠰᠤ	ᠪᠤ, y	ᠪᠤ, ü
ᠰᠤᠰᠤ	d ¹	d ¹	ᠰ	ᠪᠠ	ᠪᠠ
ᠰ	d ²	d ²	ᠰᠤᠰ	ᠪᠡ	ᠪᠡ
ᠰᠤᠰᠤᠰᠤᠰᠤ	s	z	ᠰ	ᠪᠣ	ᠪᠣ
ᠰᠤᠰ	bi, i	y, i	ᠰ	ᠪᠤ	ᠪᠤ
ᠰ	i ¹	i ¹ , i	ᠰ	ᠪᠡ	ᠪᠡ
ᠰ	i ²	i ² , i	ᠰᠤᠰ	ᠪᠣ	ᠪᠣ
ᠰᠤᠰᠤᠰᠤᠰᠤᠰᠤ	k	q	ᠰ	ᠪᠤ	ᠪᠤ
ᠰᠤᠰᠤᠰᠤᠰᠤ	κ	k	ᠰᠤᠰ	ᠪᠠ	ᠪᠠ
ᠰ	l ¹	l ¹	ᠰᠤᠰᠤᠰᠤᠰᠤᠰᠤ	ᠪᠡ	ᠪᠡ
ᠰ	l ²	l ²	ᠰᠤᠰ	ᠪᠣ	ᠪᠣ
ᠰ	l ³	l ³			
ᠰ	m	m			
ᠰᠤᠰ	n	n			
ᠰ	n ¹	n ¹			
ᠰᠤᠰ	n ²	n ²			
ᠰᠤᠰ	n	n			

Urxun yodgorliklari XVIII asrning 80-yillaridagina dunyo e'tiboriga tushdi. Daniyalik olim *Vilgelm Tomson* bu bitigtoshlardagi xatni 1893-yilning 25-noyabrida o'qishga muyassar bo'lgan. Vilgelm Tomson eng avval "*Tangri*" so'zini, keyin "*turk*" so'zini o'qigan va bu toshbitiklarning turkiy xalqlarga tegishli ekanligini ovoza qilgan. O'sha yili rus olimi *Vasiliy Vasilyevich Radlov* yodgorliklardagi 10 ta harfni aniqlashga ulgurgan. Urxun yozuvni turkiylar *dilbarjin*, yevropaliklar esa *runik* (*sirli*) deb atashgan. Bitiktoshlar Sibir, Mongoliya, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Kavkaz, Volgabo'yi va Sharqiy Yevropaning ko'pgina joylaridan topilgan. Urxun xati

